



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Ilmiy rahbar: Sevara Alikulova

Mamasodiqova Shahnozabonu Sarvarjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Ingliz filologiyasi fakulteti

Telefon: +998903612133

shaxnoza24102007@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15178797>

Annotatsiya: *Ushbu maqola chet tilini o'qitishning pedagogik amaliyotida innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq ko'p qirrali masalalarni o'rganadi. Maqolada xorijiy tilni o'rganishda samarali bo'lgan innovatsion texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining imkoniyatlari yoritilgan. Maqola, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitishda qo'llash imkoniyatlari va bu yo'nalishda amalga oshirilishi kerak bo'lgan takliflarni muhokama qiladi. Yangi texnologiyalar yordamida talabalarning o'rganish jarayoni yanada samarali va motivatsiyali bo'lishi kutiladi.*

Kalit so'zlar: *Xorijiy tillar, innovatsion texnologiyalar, sun'iy intellekt,*

onlayn ta'lim, gamifikatsiya, global ta'lim tizimi, til o'rganish metodlari, xalqaro tajribalar, faol va interfaol o'qitish metodlari.

Xorijiy tillarni o'qitish jarayoni so'nggi o'n yillikda sezilarli ravishda o'zgarib, innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga yordam bermoqda. Globalizatsiya, axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi va o'rganishning onlayn usullari xorijiy tillarni o'rganishga yondashuvlarni yangilagan. Xorijiy tillarni o'rganishda innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi, o'quvchilarga til o'rganish jarayonini tezlashtirish va samarali qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari chet tilini o'rganishga bo'lgan ta'lim motivatsiyasini kuchaytirish va talabalar bilimini oshirishga yordam beradi. AKT o'quv jarayonini faollashtirishga, o'quv jarayonini tashkil etish shakllari va usullarini takomillashtirishga qaratilgan. Ta'limni axborotlashtirish jarayonining rivojlanishi munosabati bilan o'quv materialining hajmi va mazmuni o'zgarib bormoqda, o'quv fanlari dasturlari qayta tuzilmoqda. Ushbu jarayonlarga parallel ravishda kompyuter testlari majmuasini ishlab chiqish va qo'llash, o'zlashtirish darajasini kuzatish va baholashning diagnostika usullaridan foydalanish asosida talabalarning bilim darajasi muammosiga



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

innovatsion ta'lim texnologiyalari joriy etilmoqda. Ushbu texnologiyalar orasida quyidagilar eng ommabop hisoblanadi:

1. Onlayn Ta'lim Platformalari va multimediali yondashuvlar:

Onlayn ta'limning rivojlanishi xorijiy tillarni o'rganishda keng qo'llaniladigan vosita bo'lib, Duolingo, Babbel, Memrise kabi platformalar talabalar uchun qulay va interaktiv darslar taqdim etadi. Ushbu platformalar gamifikatsiya va interaktiv mashqlar yordamida o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Bugungi kundagi zamonaviy yondashuvlarning eng keng tarqalgan usuli asosan darsda multimedialardan foydalanishdir. Chet tillari o'qituvchilarining multimediali ishlari haqiqiy virtual maydonda uzoq vaqt qolishiga to'g'ri keladi, muloqot jarayonini o'rganishni yengillashtiradi, bunda multimediali manba qiziqarli bo'lsa uni o'rganish ham oson bo'ladi. Multimediali vositalarning foydaliligi shundaki, biror tilni o'rganishda jonli o'yinlarni ko'rib ya'ni rasmlarni ko'rib, tovushlarni eshitib, jonli o'yinlarning faolligini kuzatish mumkin. Multimediali yondashuvlarda asosan bitta insonni baholash oson, chunki multimediali yondashuvlarda o'yinlar orqali o'rganishga ruxsat beriladi

2. Sun'iy Intellekt (AI) va Avtomatik Mashg'ulotlar :

Sun'iy intellekt yordamida tilni o'rganish jarayonida talabalar uchun avtomatik yordam va tahlil vositalari taqdim etiladi. AI orqali talabalar so'z boyligini oshirish, grammatikani o'rganish va tilni avtomatik tarzda tahlil qilish imkoniga ega bo'ladi. Google Assistant, Siri kabi texnologiyalar bu jarayonda yordam beradi.

3. Gamifikatsiya:

Gamifikatsiya bu - o'yin elementlaridan foydalanib dars o'tish. O'yin elementlarini yutuqlar, ballar, peshqadamlik jadvali kabilar tashkil qiladi. Gamifikatsion faoliyatda ishtirokchilarning hamkorlikda harakat qilish, o'z-o'zini rivojlantirishga motivatsiya olish, faoliyatidan zavqlanish, muammolarni birgalikda hal qilish kabi ko'nikma va malakalari rivojlanadi. Ta'limda bu Moodle platformasi orqali amalga oshadi. Bunda dinamik o'quv muhiti, mukammal pedagogik mahorat va kasbiy bilimga ega o'qituvchilar talab qilinadi.

4. Faol va interfaol o'qitish metodlari:

Faol metod talabaning chet tili bilan bog'liq bo'lgan turli muammoli vaziyatlarga tushib qolishi va ulardan chiqib ketish malakalari negiziga quriladi. Faol metodlar talabaning mustaqil o'zini shakllantirishi darkorligi asosiga tashkil etiladi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Ya'ni talaba o'z bilimlarini chet tili bo'yicha shakllantiruvchi shaxsga aylantiriladi. Faol metod hozirgi kunda chet tillarni o'qitishda keng qo'llaniladi. Har qanday bilim olish jarayoni talabalarning tafakkurida kechadigan fikrlash qobiliyati bilan uzviy aloqadorlikda yuz beradi. Bu esa pedagogdan turli innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishini taqozo etadi. Ulardan: kognitiv, pozitiv, emotsional, optimistik, texnologik metodlar. Ularning bari talaba shaxsini har tomonlama keng til nuqtai nazaridan rivojlantirishga qaratiladi.

5.Xalqaro qora doska:

Bu doska xotira va isbot kabi ikki tushunchani bog'laydi. Qora doska virtual ekran va o'qitish o'rganish uchun imkon beradigan sxemalardan tuzilgan. Internet chet tillari o'qituvchilari uchun kerakli resurs manbasidir. U barcha turdagi tasdiqlangan hujjatlarning katta miqdorini o'zida jamlaydi.

Doskalar ya'ni interaktiv doskalar Marti tomonidan fanga kiritilgan. Interaktiv doskalar turli tipdagi grammatik mashqlarni, mantiqiy iboralarni ifodalashda dastlab ishlatilgan. Bugungi kunda ularni "sun'iy aql" deb ham yuritiladi. Sun'iy aql programmasi turli maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan. Bunday zamonaviy texnologiyalar tufayli chet tilini o'rganish bugungi kunda ancha qulaydir.

Chet tillarini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashdan asosiy maqsad fanni oson o'zlashtirishga ko'maklashish hisoblanadi. Bunda ma'lum bir manbani eshitib tushunish, uni nutqda ifodalash, o'qib tushunish hamda yozma tarzda ifodalash muhimdir. Zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida amalga oshirilishi muhim omil sanaladi. Bu usul ishni samaradorligini yaxshilashga yordam beradi. O'qituvchilar bo'sh va ijodiy vaqtini o'zini rivojlantirishga sarflashi mumkin. „Sun'iy aql va tillarni o'rganish“ maqolasida B.Skinner tilni osonlik bilan o'rganishda kompyuterning roli muhimligini ko'rsatadi. Kompyuter bilan ishlash o'z ustida ishlash uchun qulaydir. Zamonaviy texnologiyalar yordamida tilni o'rganishda, talabalar ma'lumotlarga munosabat bildirishni o'rganadilar va ma'lumotlarni sust ya'ni noaniq joylarini tahlil qila oladilar. Texnologiya faqatgina zamonaviy ta'lim uchungina xos emas, balki u kelajakning zamonaviy va yangi ta'limini amalga oshiruvchi o'rtadagi manbadir.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy - kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchida chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining bir necha xil



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo'ladi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarining ortishi ham ta'minlanadi. Ta'lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbiq qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o'qitilishida turli rolli, harakatli o'yinlardan foydalanish ham darsga ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o'quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi.

Biz yangi davr xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlashda ularning faqat til bilish darajasini emas, balki o'z darslariga auditoriyani qiziqitira olish mahorati, zamonaviy metod va ta'lim texnologiyalarni qo'llash hamda o'quvchilarning til o'rganishga ehtiyojini sifatli ta'minlab bera olish kompetensiyasiga ham e'tibor qaratishimiz lozim. Darsda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish o'qituvchining ko'p qirrali va rang-barang faoliyatini kompyuter zimmasiga yuklash emas, balki o'quv jarayonini jadallashtirish, bilim olish amaliyotini faollashtirish, o'quvchilarda chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish va xalqaro ta'lim tajribasini o'rganish va shu yo'l bilan ta'lim samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Irgasheva N. D. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion
2. texnologiyalardan foydalanish //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022.
3. Годжиев Х. Интерфаол ўқитиш методлари асосида талабаларнинг
4. креативлик қобилиятларини шакллантириш //Общество и инновации. – 2021.
5. Бегматов К. Иккинчи чет тили ўқитувчисининг касбий-педагогик
6. сифатлари ва функциялари //Иностранная филология: язык, литература,
7. образование. – 2021. – №. 2 (79). – С. 84-87.
8. 4. Джумамбетова Д. Хорижий тилларни ўқитишда миллий-маданий
9. ёндошув //Инновации в педагогике и психологии. – 2021. – Т. 4.
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-quv-jarayonida-gamifikatsiyadan-foydalanish-imkoniyatlari/pdf>